

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH FANIDAN

Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

MA'RUZA MATNLARI

TOSHKENT – 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
dotsent S.U.Aliyev
“ ”

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH FANIDAN

“Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar ishini tashkil qilish”

Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

MA'RUZA MATNLARI

TOSHKENT – 2016

Mavzu: TURLI MULKCHILIK SHAKLIDAGI DORIXONALAR ISHINI TASHKIL QILISH

Reja

1. Dorixonaning vazifalari.
2. Xususiy dorixona muassasalari, ularning vazifalari.
3. Aksiyadorlik dorixona muassasalari, ularning vazifalari.
4. Aksiya, uning turlari.
5. Jamoa dorixona muassasalari, ularning vazifalari.
6. Dorixona shtati
7. Dorixonadagi bo'limlar
8. Dorixona shaxobchalari.

O'zbekiston Respublikasida Dori vositalari va Farmatsevtik faoliyat to'g'risidagi qonun 1997 yil 25 aprelda oliy majlis tomonidan qabul qilingan. shu qonunga asosan farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanish faqatgina oliy ma'lumotli farmatsevtgagina ruxsat etiladi.

Farmatsevtik faoliyat – dori vositalarini, tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha izlanishlarni, tadqiqotlarni, shuningdek, ularni ishlab chiqarish, tayyorlanish sifatini nazorat qilish, standartlash, ro'yxatdan o'tkazish, saqlash, axborot berish, etkazib berish va realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyatlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan alohida ruxsatnoma (litsenziya) beriladi.

Aholini va DPM larni dori vositalari bilan ta'minlash ishlarini turli dorixona muassasalari olib boradi. Dorixona muassasalariga dorixonalar, dorixona shaxobchalari, tibbiyot texnikasi magazinlari, optika magazinlari, dorixona omborlari, tibbiyot texnikasi bazalari kiradi.

Dorixona sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholini va DPMLarni, boshqa tashkilotlarni dori-darmonlar, tibbiyot texnikasi buyumlari, sanitariya-gigiena buyumlari, bemorni parvarishi uchun ishlatiladigan

buyumlar, bog'lov materiallari, dezinfektsiya vositalari va boshqa buyumlar bilan ta'minlash;

- aholidan qabul qilingan retseptlar asosida dorilar tayyorlash, ularni sifatini nazorat qilish;

- retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalarini (sanitariya gigiena buyumlari, bemorlar parvarishi uchun ishlatiladigan buyumlar, shifobaxsh suvlar, dezinfektsiya vositalari) bilan savdo qilish;

- o'ziga biriktirilgan DPMlarni dori vositalari, tibbiyot maqsadida ishlatiladigan buyumlar bilan ta'minlash;

- shifokor va boshqa tibbiyot xodimlariga dori darmonlar, ularning qo'llanilishi, ularni o'rnini bosuvchi dori vositalari to'g'risida axborot berish;

- zarurat tug'ilganda aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Dorixonalar ko'p qavatli binolarning birinchi qavatida yoki alohida qurilgan binolarda joylashgan bo'lishi shart. Dorixonalarda kutish zali, assistentlar xonasi, dorilarni aseptik sharoitda tayyorlaydigan xona, qadoqlash xonasi, mol-moddiy boyliklarni saqlash xonasi bo'ladi. Dorixonada yuqori samaradorlikka erishish uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishni yo'lga qo'yish kerak. shuningdek, sanitariya rejimi va farmatsevtik tartib qoidalariga amal qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasi xukumati iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlardan biri aholini, shu jumladan dorixona xodimlarining faol ishchanligini rag'batlantirish lozimligini e'tiborga olib Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 martdagi 132-sonli qarori tasdiqlandi.

Shunga asosan hozirgi kunda dorixonalarning uchta mulkchilik shakli: xususiy, aksiyadorlik va jamoa dorixonalari mavjud.

Xususiy dorixona faoliyatida ko'zlangan maqsad O'zbekiston Respublikasi aholisi hamda Sog'liqni saqlashni rivojlantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Xususiy dorixona yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansiga, banklarda hisob raqamiga ega bo'ladi. Dorixona o'z faoliyatidan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun o'z nomidan bitimlar olib borishi, mulkiy huquqqa ega bo'lishi hamda o'z zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda, davlat arbitrajida va hakamlik sudida da'vogar va javobgar bo'lish huquqiga ega. Dorixona o'ziga tegishli mulk egasidir.

Dorixona o'zining asosiy maqsadini ro'yobga chiqarish uchun faoliyatning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- yuqori sifatli dori-darmonlar, tibbiyot buyumlari, zardoblar, vaktsinalar, dorivor o'simliklar, tibbiyot texnikasi va optika buyumlari va gigiena ashyolari, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari va vitamininga boy mahsulotlar bilan ta'minlash;

- ularni ishlab chiqarish, sotish shu jumladan bepul retseptlar bo'yicha aholini dori-darmon bilan ta'minlash.

1. Dorixonalarni xususiylashtirish tadbirkorlikni rivojlantirish shaxsiy mablag'ni jalb qilish asosida aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining dori vositalari va tibbiyot ashyolariga bo'lgan talab va ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida amalga oshiriladi.

2. Xususiylashtirilgan dorixona farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanishga majbur. Shu bilan birga boshqa O'zbekiston Respublikasi qonunlari ma'n qilmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga ega.

3. Dorixonaga, xokimiyatga davlat orderi berilgandan so'ng u yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. U ustav fondini tashkil etuvchi asosiy va oborot mablag'lariga, banklardagi hisob raqamiga, o'z nomi va boshqa belgilari ko'rsatilgan muxr va shtampga ega bo'ladi.

4. Asosiy maqsadni bajarishda dorixona quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi: yuqori sifatli dori-darmonlar ishlab chiqish va tibbiy ashyolar, texnika asboblari va ko'zoynaklar, atir upa va pardozlash ashyolari, sanitariya va gigiena vositalari, bolalar ovqatlari vitaminlashtirilgan ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash.

5. Dorixonalarda zaxarli va giyohvand dorilarni ishlab chiqarish, qabul qilish, saqlash va sotish ma'n qilinadi.

6. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan dorixonalarga quyidagi faoliyatlar bilan shug'ullanish huquqi beriladi: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tarafidan ishlatishga ruxsat etilgan o'z va xorijiy dori vositalarini keltirishga korxona, tashkilot, muassasa, chet el firmalari, yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnoma va kontraktlar tuzish.

7. Dorixonada ta'minotchidan dori vositalarini, tibbiyot ashyolarini ta'minotchi bilan kelishilgan shartnoma narxida qabul qilib, aholiga erkin kelishilgan,

belgilangan ustama narx qo'yib (agar shartnomada boshqa narx belgilanmasa) sotadi va xizmat ko'rsatadi.

8. Savdodagi dori vositalarining va tibbiyot ashyolarining sifatiga dorixona egasi javob beradi.

9. Dorixonalarda tayyorlab sotiladigan va tayyor olingan dorilar sifatining nazorati davlat dori-darmon aksiyadorlik jamiyatining markaziy yoki xududiy nazorat tahlil laboratoriyalari tarafidan o'tkaziladi.

10. Dorixonaning foydasi quyidagilardan tashkil topadi: dorilarni, boshqa ma'n etilmagan tovarlarni sotish va xizmat qilishdan; byudjetdagi tibbiy tashkilotlardan bepul dori berish evaziga o'tkazilgan pul mablag'laridir.

11. Tegishli soliq va majburiy to'lovlar chegirilgandan so'ng foydani dorixona o'z ixtiyoriga binoan sarflaydi.

12. Dorixona egasi bilan xizmatchilar o'rtasidagi mehnat munosabati mavjud qonunchilikka asosan tuziladigan shartnoma yoki bitimga asoslanadi.

13. Dorixona o'z faoliyati yuzasidan hisob olib borib tegishli tashkilotlarga qonunchilik bilan belgilangan tartibda buxgalter hisobotini topshiradi.

14. Dorixona faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kelishuv shartnomada belgilangan tartibda to'xtatiladi.

15. Dorixonani tugatish mavjud qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik dorixonalari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari, hamda ularning faoliyatini boshqaruvchi normativ xujjatlarga amal qilgan xolda olib boradi. Dorixonalarning o'z mehnat jamoalari, hissador, jamoa oilaviy, xususiy dorixonalar aksiyadorlik dorixonalari ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Aksiyadorlik dorixonalari o'z ishlab chiqarish ho'jalik va savdo faoliyatini to'la ho'jalik hisobi asosida amalga oshiradilar.

Aksiyador dorixonalarning asosiy maqsadi aholining va sog'liqni saqlash muassasalarining dori-darmon, hamda tibbiy maqsaddagi buyumlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishdan iboratdir. Aksiyadorlik dorixonalar shartnomada belgilangan butun muddatda ishlab chiqarish, ho'jalik va savdo faoliyati yo'nalishini o'zgartirmasligi darkor.

Aksiyadorlik dorixonalarining asosiy vazifalari: dorixona muassasalarini dori-darmon bilan to'la ta'minlash; aholini va sog'liqni saqlash muassasalarini tadbirkorlikni rivojlantirish asosida dorilar bilan ta'minlash darajasini oshirish.

Aksiyadorlik dorixonalarining nizomiy jamg'armasi davlat tasarrufidan chiqarilgan dorixona mulkining baholanadigan qiymati asosida belgilanadi. Uni tuzish to'g'risidagi ta'sis shartnomasi nizom ta'sis xujjatlari bo'lib xizmat qiladi. Ta'sis xujjatlarida tashkil qilinayotgan yuridik shaxs, uning maqsadi va faoliyati predmeti, ishtirokchilar tarkibi nomi va manzilgohi, har bir ishtirokchiga tegishli hissa (pay, aksiya) miqdori daromadni taqsimlash va ziyonni qoplash tartibi, boshqaruv tuzilmasi, mulk summasi, uni sotib olish tartibi va muddati to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Aksiyadorlik jamiyati hissadorlar reestrini olib boradi, unda aksiyalar miqdori va turi olingan vaqti, aksiyadorning familiyasi, ismi, otasining ismi olingan aksiyaning nominal bo'yicha jami qiymati ko'rsatiladi. Davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlari bosharti ta'sis xujjatlarida, dori-darmon respublikada dorixonalar boshqarmalari uchun belgilab qo'yilgan va amal qilib turgan tartibda sotiladi.

Aksiyadorlik dorixonalar xodimlar joylash va ishdan bo'shatish, ish kuni tartibi ish smenaliligini mehnat to'g'risidagi qonunlarga muvofiq belgilaydilar. Aksiyadorlik dorixonalar davlat sug'urta jamg'armasiga hamda pensiya fondiga amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda va miqdorda mablag' ajratishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fond bozorini yanada rivojlantirish va davlat mulki asosida tashkil etilgan aksiyador jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi farmoniga binoan qimmatli qog'ozlar muomalasi deganda qimmatli qog'ozlarni tasarruf etuvchilarni almashishga olib keluvchi, ularni oldi-sotdi va boshqa xarajatlari tushuniladi.

Aksiya – aksiyador jamiyatni boshqarishda, jamiyatning foydasida va jamiyat tugatilganda mulk qoldig'ini taqsimlashda qatnashish huquqini beruvchi aksiyador jamiyatining ustav kapitali (fondi)ga qo'shilgan mablag'ni tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Aksiya harakat muddatiga ega emas va u aksiyador jamiyatining faoliyati davomida harakatda bo'ladi.

Aksiya aksiyadorlik dorixona ishtirokchisi ekanligi to'g'risida dalolat beradi hamda uning foydasidan hissa olishga imkon yaratadi.

Davlat korxonalari asosida tashkil qilingan ochiq tipdagi aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini ro'yxatga olish va muomalaga chiqarish tartibiga binoan xujjat sifatida aksiya quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi kerak: aksiyador jamiyatning nomi va joylashgan joyi, qimmatli qog'ozning nomi – "aksiya", uning turi (oddiy va imtiyozli), tartib nomeri, chiqarilgan sana, nominal qiymati, chiqariladigan aksiyalarning miqdori, ro'yxatga oladigan organ tomonidan berilgan aksiyaning kodi, dividendlarni to'lash muddati, aksiyador jamiyati boshqaruvining raisi va bosh buxgalterining imzolari, ustav kapitalining hajmi.

Sotib olingan aksiyalar uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan pul milliy va xorijiy valyutalarda, shuningdek asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa aktivlarni qo'shish yo'li bilan to'lanishi mumkin.

Shaxsini belgilash usuliga qarab ismi yozilgan va ko'rsatuvchiga berilgan aksiyalarga bo'linadi. ismi yozilgan aksiyalarda mulkdorning maxsus daftarida ro'yxatga olinadi. Bu o'z navbatida kimda qancha va qanday aksiyalar borligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Ko'rsatuvchiga berilgan aksiyalarda mulkdorning ismi ko'rsatilmaydi, natijada jamiyat o'zining paychilari to'g'risida axborotga ega bo'lmaydi. Muomala nuqtai nazaridan ko'rsatuvchiga berilgan aksiya afzalroqdir.

Aksiya egalari berilgan huquqlar hajmiga qarab aksiyalar oddiy va imtiyozliga bo'linadi.

Oddiy (ovoz berish huquqi bilan) aksiyalar aksiyador jamiyatini boshqarishda qatnashish, hisobot davri tugaganda aksiyadorlar majlisi tomonidan aniqlanadigan miqdorda dividend olish va jamiyat faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash huquqini beradi (divident bu har bir aksiyaga to'g'ri keladigan va aksiyadorlar orasida taqsimlanadigan foydaning bir qismidir).

Imtiyozli (ovoz berish huquqisiz) aksiyalar aksiyador jamiyatini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi, lekin korxona o'z faoliyatini foyda bilan yakunlamaganda ham birinchi navbatda qat'iy belgilangan miqdorda dividend olish huquqini beradi. Bunday hollarda korxona rezerv fondidagi mablag'lardan foydalanadi.

Imtiyozli aksiyalarni chiqarish aksiyador jamiyatiga o'z mablag'larini jalb qilish yo'li bilan ustav kapitalini ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Jamoa dorixonalari asosan xususiy mulkka aylantirilgan dorixonalar bo'lib, o'zini ishlab chiqarish, ho'jalik va savdo faoliyati bilan shug'ullanadi. O'z ish faoliyatlarini yakka tartibdagi xususiy dorixonalar kabi amalga oshiradi.

Dorixonaning faoliyatidan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- aholi va DPMLarni dori-darmonlar, bog'lov vositalar, dorivor giyohlar va buyumlarni parvarishda ishlatiladigan ashyolar, tozalik va orastalik ashyolari, dizenfektsiya vositalari va pardoqlash (parfyumeriya kosmetika) vositalari bilan ta'minlash;

- asosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun dorixona faoliyatining quyidagi turlari amalga oshiriladi;

- dori-larni sotib olish va tayyorlash qadoqlash va sotish;

- dorixona qoshidagi "giyohli sharbatlar maskani"da damlamalar, qaynatmalar, giyohli sharbatlar va boshqa dori-darmonlar sotish;

- tarkibida glyukoza va oqsil bo'lgan moddalarni sotib olish va realizatsiya qilish;

- bir marta ishlatiladigan shpritslar va qon quyish sistemalari sotib olish va realizatsiya qilish;

- dori ishlab chiqarish uchun xom ashyo, idish va yordamchi materiallarni yuridik va jismoniy shaxslardan naqd pulga yoki pul o'tkazish yo'li bilan sotib olish;

- aholiga va tibbiyot xodimlariga dorixonada mavjud bo'lgan va kelayotgan dori-darmonlar hamda ularning qo'llanilishi haqida ma'lumot berish va ularni reklama qilish.

Dorixonani tovarlar bilan ta'minlash tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Dorixonada mavjud bo'lgan dori vositalarini saqlashda amaldagi sanitariya qoida va me'yorlariga hamda farmatsevtik talablarga qat'iy rioya qilinishi lozim.

Dorixonani kerakli jixozlar va asboblarni hamda dori-darmonlar, sanitariya gigiena ashyolari, bog'lov vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Dorixona faoliyatini boshqarish oliy farmatsevtika ma'lumotiga va etarli mutaxassislik malakasiga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat etiladi.

Dorixona shtati 2 ta guruhga bo'linadi:

1. Ma'muriy boshqaruvchi va xo'jalik xizmatchilar (mudir-farmatsevt, mudir muovinnari, - farmatsevt, bosh buxgalter, buxgalter, hisobchi, iqtisodchi, bosh kassir, kassir, xo'jalik bo'limi boshlig'i)

2. Farmatsevt va yordamchi xodimlar. (farmatsevtlar va ularning yordamchilari, farmatsevtlar (provizorlar) – bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i muovinnari, farmatsevt-assistentlar, filial sotuvchisi, retseptsiz savdo bo'limi boshlig'i, qadoqllovchi, sanitarka yuvuvchi, avtomobil xaydovchisi.

Dorixona xodimlari soni dorixona ish xajmiga qarab belgilanadi.

Yirik dorixonalarda 4 ta mustaqil bo'lim tashkil etiladi.

1. Retseptura bo'limi.
2. Tayyor dorilar bo'limi.
3. Retseptsiz savdo bo'limi.
4. Zahiralar bo'limi

Bu bo'limlardan tashqari yana bir qator bo'limlar tashkil etilishi mumkin: fitobar, optika, tijorat va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 576-sonli buyrug'iga asosan, qishloq aholisini, ayniqsa tog'li o'lka – xududida joylashgan qishloqdagilarni dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchalarini ochish maqsadga muvofiqdir.

Dorixona shaxobchasining asosiy vazifasi aholiga tayyor dori vositalari, sanitariya – gigiena va bemorlar parvarishida qo'llaniladigan buyumlar, dorivor giyohlar, bog'lov materiallari va boshqa tibbiyot buyumlarini sotishdan iboratdir.

Qishloq vrachlik punktida 2002 yil 27 dekabrda dorixona shaxobchasi farmatsevtik faoliyat yuritish uchun litsenziya beruvchi vakolatli organ va tarmoqni dori vositalari bilan ta'minlovchi dorixona o'rtasida tuziladigan litsenziya shartnomasi asosida tashkil qilinadi.

Qishloq vrachlik punktida 2002 yil 27 dekabrda dorixona shaxobchalari tashkil qilinishi xududiy sog'liqni saqlash bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Dorixona shaxobchasining tashkil qilinishi va uning ish tartibi quyidagilar bilan belgilanadi:

- dorixona shaxobchasi uchun (boshqa yordamchi xonalar qishloq vrachlik punktining tarkibida borligini hisobga olgan holda) 2-3 ming aholiga xizmat ko'rsatadigan qishloq vrachlik punktlarida maydon 6 kv. metrdan 4-5 ming aholiga xizmat ko'rsatadigan qishloq vrachlik punktida maydoni 8 kv metrdan kam bo'lmagan tayyor dori vositalarini sotish xonasi ajratiladi.

- dorixona shaxobchasi o'z faoliyatini yuritish uchun kerakli jixozlar (shkaf, vitrina, stellaj, muzlatgich, stol, stul va h.k.) bilan jixozlanishi hamda tegishli qo'llanma va buyruqlar bilan ta'minlanishi lozim;

- dorixona shaxobchasining mudiri lavozimiga qishloq vrachlik punkti xodimlari tarkibidagi o'rta tibbiyot ma'lumotli shaxs (o'rindoshlik asosida) yoki shaxobchani ta'minlovchi xo'jalik hisobidagi dorixona xodimi tayinlanishi mumkin;

- dorixona shaxobchasining mudiri xududiy sog'liqni saqlashning bo'limi hamda dorixona shaxobchasining dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlovchi ho'jalik hisobidagi dorixona o'rtasidagi kelishuvga muvofiq buyruq asosida tayinlanadi;

- dorixona shaxobchasining mudiri qishloq vrachlik punkti xodimlaridan tayinlansa, tuman sog'liqni saqlash bo'limining kafolat xatiga binoan dorixona shaxobchasining mudiri va ta'minlovchi dorixona mudiri o'rtasida moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuziladi. bu holda dorixona shaxobchasini tayyor dori vositalari, bog'lov materiallari va boshqa tibbiyot buyumlari bilan dorixona tomonidan ta'minlanishi tuman sog'liqni saqlash bo'limi bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi;

- dorixona shaxobchasining mudiri unga berilgan barcha tovar – moddiy boyliklarga to'liq moddiy javobgar hisoblanadi, hamda, belgilangan tartibda va muddatda dorixonaga oylik topshiradi.

Dorixona shaxobchasi o'zining asosiy vazifalarini bajarishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- aholiga sifati kafolatlangan va O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish;

- O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi

qonunlariga va boshqa amaldagi me'yoriy xujjatlar bilan belgilangan qoidalarga rioya qilish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11 mart 1994 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi 132-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 27-dekabr 2002 yil 576-sonli "Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish to'g'risida"gi buyrug'i.

3. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati I kitob. Toshkent-2001. dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni 1997 yil. 25 aprel 5-13 betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2007 yil 17 sentyabrdagi "Shifoxonalar, klinikalar va dispanserlar hududida xususiy dorixonalar faoliyatini taqiqlash to'g'risidagi" 412 sonli buyrug'i.

5. Санитарные правила и нормы устройства аптек и их филиалов по реализации готовых лекарственных средств и изделий медицинского назначения СанПиН № 0243-07, Ташкент 2008 г.